



THE EXPERIENCE OF THE EAST AND WEST IN THE FORMATION OF THE NATIONAL MENTALITY OF KARAKALPAK YOUTH

Jiengaliy Usenov

Doctor of Philosophy (PhD)

Associate Professor of the Department of "National Idea, Foundations of Spirituality and Legal Education,"

Nukus State Pedagogical Institute

Nukus, Karakalpakstan

ABOUT ARTICLE

Key words: Karakalpak youth, national mentality, Eastern experience, Western experience, upbringing, national values, globalization, youth education, personal development, inclusion.

Received: 02.12.25

Accepted: 03.12.25

Published: 04.12.25

Abstract: This article examines the issue of forming the national mentality of Karakalpak youth based on a comparative analysis of the experience of the East and West. The experience of Western countries is aimed at developing the personality of young people, forming their skills of critical thinking, inclusiveness and tolerance, and actively using innovative methods and technologies. In turn, the experience of the East is based on the influence of national and spiritual values, morality, discipline, diligence, family, and society. The article analyzes the strengths and inconsistencies of both educational systems and proposes ways to adapt the best practices of the West while preserving the national mentality. The author emphasizes the importance of educating young people in the spirit of national values, taking into account modern global processes.

QORAQALPOQ YOSHLARINING MILLIY MENTALITETINI SHAKLLANTIRISHDA SHARQ VA G'ARB TAJRIBASI

Jiengaliy Usenov

dotsenti v.b., falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Nukus davlat pedagogika instituti

"Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrası

Nukus, Qoraqalpog'iston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: qoraqalpoq yoshlari, milliy mentalitet, sharq tajribasi, gʻarb tajribasi, tarbiya, milliy qadriyatlar, globallashuv, yoshlar tarbiyasi, shaxsiy rivojlanish, inklyuziya.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sharq va Gʻarb tajribasini qiyosiy tahlil qilish asosida qoraqalpoq yoshlarining milliy mentalitetini shakllantirish masalasi koʻrib chiqilgan. Gʻarb mamlakatlari tajribasi yoshlar shaxsini rivojlantirish, ularda tanqidiy fikrlash, inklyuzivlik va bagʻrikenglik koʻnikmalarini shakllantirish, innovatsion usul va texnologiyalardan faol foydalanishga qaratilgan. Oʻz navbatida, Sharq tajribasi milliy va maʼnaviy qadriyatlar, axloq, intizom, mehnatsevarlik, oila va jamiyat taʼsiriga tayanadi. Maqolada ikkala tarbiya tizimining kuchli va nomuvofiq tomonlari tahlil qilinib, milliy mentalitetni saqlab qolgan holda Gʻarbning ilgʻor tajribasini moslashtirish yoʻllari taklif etiladi. Muallif hozirgi global jarayonlarni hisobga olgan holda yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash muhimligini taʼkidlaydi.

ВОСТОЧНЫЙ И ЗАПАДНЫЙ ОПЫТ В ФОРМИРОВАНИИ НАЦИОНАЛЬНОГО МЕНТАЛИТЕТА КАРАКАЛПАКСКОЙ МОЛОДЕЖИ

Жиенгалий Усенов

Доктор философии (PhD) по философским наукам

Исполняющий обязанности доцента кафедры «Национальная идея, основы духовности и правового образования»

Нукусского государственного педагогического института

Нукус, Каракалпакстан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Каракалпакская молодежь, национальный менталитет, восточный опыт, западный опыт, воспитание, национальные ценности, глобализация, воспитание молодежи, личностное развитие, инклюзия.

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос формирования национального менталитета каракалпакской молодежи на основе сравнительного анализа опыта Востока и Запада. Опыт западных стран направлен на развитие личности молодежи, формирование навыков критического мышления, инклюзивности и толерантности, а также активное использование инновационных методов и технологий. В свою очередь, восточный опыт опирается на национальные и духовные ценности, нравственность, дисциплину, трудолюбие, а также влияние семьи и общества. В статье анализируются сильные и несовместимые стороны обеих систем воспитания, предлагаются пути адаптации передового западного опыта с

сохранением национального менталитета. Автор подчеркивает важность воспитания молодежи в духе национальных ценностей с учетом современных глобальных процессов.

Har bir xalqning o'ziga xos mentaliteti, milliy xususiyatlari bor. Bu xususiyatlar kecha yoki bugun paydo bo'lmagan. Ular asrlar davomida obyektiv va subyektiv omillar natijasida shakllanib, takomillashib borgan.

Ota-ona bog' bo'lsa, farzand - uning mevasi. Farzand yoshligidan shu bog'da tarbiya oladi, o'sib voyaga yetadi.

Biz bu maqolada qoraqalpoq yoshlarining milliy mentalitetini shakllantirishda Sharq va G'arbning tajribalarini so'z yuritmoqchimiz.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, dunyoning rang-barangligini o'zida mujassam etadigan umuminsoniy, universal mentalitetni shakllantirish masalasi paydo bo'ldi. Bunday vaziyatda G'arb va Sharq juftligining qiyofasi, ularning o'xshash va farqli jihatlari, o'zaro yaqinlashuvi va uzoqlashuvi, shuningdek, madaniy o'zaro ta'sir muammosi barchaning e'tiborini tortmoqda. . Yoshlar mentalitetini shakllantirishda G'arb va Sharqning o'ziga xos maktabi bor.

Dastlab yoshlar mentalitetini shakllantirishda G'arb mamlakatlari tajribasini ko'rib chiqaylik.

Bugungi globallashuv sharoitida yoshlar tarbiyasida G'arb davlatlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, bizdan yosh avlodni rivojlantirish, tarbiyalash va ijtimoiylashtirish sohasida yetakchi davlatlarning yondashuvlarini o'rganishni nazarda tutadi. Bugungi kunda G'arb mamlakatlari (ayniqsa, AQSH, Germaniya, Fransiya, Shvetsiya, Niderlandiya, Buyuk Britaniya va boshqalar) da yoshlar tarbiyasiga oid ko'plab ilg'or metodlar amaliyotda qo'llanilmoqda. Ulardan asosiy yo'nalishlarni tahlil qilib ko'raylik:

1. Shaxsga yo'naltirilgan tarbiya. Bunda har bir bola va o'smir alohida shaxs sifatida qaraladi. Ular bilan shaxsiy inson sifatida munosabat olib boriladi. Ularning qobiliyati, qiziqishi, shaxsiy fikriga hurmat bilan yondashiladi. Tarbiyaning diqqat markazida yoshlarning o'z-o'zini anglashi va rivojlanishi turadi.

2. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish. Bu borada yoshlarga ma'lumotni tanqidiy baholash, mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish kabi ko'nikmalar o'rgatiladi. Ta'lim berish jarayonida savol berish, bahslashish, muqobil fikrlarni muhokama qilish rag'batlantiriladi.

3. Inklyuziv va tolerant tarbiya. Bunda barcha irq, millat, din va jinsga mansub yoshlar uchun teng imkoniyat yaratiladi. Ijtimoiy adolat, gender tenglik, inson huquqlari kabi umuminsoniy qadriyatlar tarbiyaning asosiga aylantirilgan.

4. Ta'lim va tarbiyada amaliy yondashuv. Bunda ma'ruza va nazariy bilimga nisbatan amaliy ish (amaliy mashg'ulotlar, tajriba, guruhda ishlash) afzalroq ko'rsatiladi. Volontyorlik, ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish orqali tarbiya kuchaytiriladi.

5. Ota-ona va maktab hamkorligi. Bu yo'nalishda ta'lim muassasalari va ota-onalar o'rtasida yaqin aloqa yo'lga qo'yiladi. Bolalar tarbiyasida ota-onalarning faol ishtiroki ta'minlanadi.

6. Psixologik qo'llab-quvvatlash. Bu usulda maktab va universitetlarda psixologlar, maslahatchilar xizmat ko'rsatadi. Yoshlarning ruhiy holatini kuzatib borish va ularga ko'maklashish tizimlashtirilgan.

Endi yoshlarni tarbiyalashda G'arb mamlakatlarida olib borilayotgan amaliyotni ayrim misollar bilan dalillashga harakat qilamiz. Finlyandiya maktablarida ta'limning asosiy maqsadi - baxtli va mustaqil shaxsni tarbiyalashga qaratilgan. Bunda har bir o'quvchi uchun individual yondashuv qilinadi. Kam baholash, sinovsiz baholash usullari qo'llaniladi. Germaniyada dual ta'lim tizimi, ya'ni maktab + ish joyidagi amaliy ta'lim birgalikda olib boriladi (shunga o'xshash amaliyotlar bizning mamlakatimizda ham boshlangan. Biroq, oxiriga yetkazilmagan, natijasi ko'rinmayapti). Shuningdek, yoshlarning ongi va qalbiga inson huquqlari, fuqarolik mas'uliyati tuyg'ulari singdirib boriladi.

AQShda yoshlarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, yetakchilik qobiliyatini shakllantirishga ko'proq e'tibor beriladi. Bu yerda klublar, debatlar, sport va ijtimoiy faoliyat keng tarqalgan. Shvetsiyada bolalarga erkinlik va mustaqillik berishga katta e'tibor qaratiladi. Jinsiy tarbiya va jamiyatda teng huquqlilikka o'rgatiladi.

G'arbdan yoshlarni tarbiyalashda, ularga mentalitetni singdirishda nimalarni o'rganish mumkin?

1. Shaxsiy erkinlik va mas'uliyat muvozanatini saqlash.
2. Ta'lim va tarbiyada zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish.
3. Yoshlarning fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish.
4. Yoshlarda ijtimoiy loyihalarda faol ishtirok etish ko'nikmasini shakllantirish.

Bunda yoshlar tarbiyasida bizga ijobiy jihatlar sifatida inson huquqlariga asoslangan yondashuv, innovatsion va mustaqil fikrlaydigan avlodni tarbiyalash, yoshlarning ijtimoiy faolligi va qat'iyati kabi usullarni qabul qilsak bo'ladi.

Har bir xalqning fikrlash va yashash tarzi, atrof-muhiti, milliy psixologiyasi, milliy o'zligi, mentaliteti xilma-xil bo'lganligi sababli, albatta, yoshlar mentalitetini shakllantirish borasida G'arb mamlakatlarining bizga ma'qul kelmaydigan jihatlari ham bor. Biz buni unutmasligimiz kerak. Masalan, ortiqcha erkinlik ba'zan intizomsizlikka olib kelishi mumkin. Sababi, G'arbda yoshlarga haddan tashqari erkinlik berilgan. Ularning yurish-turishi, jamiyatda o'zini tutishi ota-onalar tomonidan nazorat qilinmaydi. O'smir 16 yoshga to'ldi, demak, u mustaqil shaxs sifatida

harakat qiladi. Bu esa bizning Sharqqa xos mentalitetimizga to'g'ri kelmaydi. Shu bilan birga, mentalitetimizga to'g'ri kelmaydigan ayrim qadriyatlar bor. Masalan, jinsiy erkinlik. G'arbda yoshlarga jinsiy erkinlik berilgan. Erkak bilan erkakning turmush qurishi, erkak va ayolning o'z jinsini o'zgartirishi kabi hodisalar odatiy turmush tarziga aylanib bormoqda. Bizda esa or-nomus, vijdon, uyat, ibo degan qadriyatlar muqaddas sanaladi. Bizdagi diniy tarbiya natijasida azaldan shakllangan mentalitet bunga yo'l qo'ymaydi.

Endi yoshlarni tarbiyalashda, ularda mentalitetni shakllantirishda Sharq tajribalarini ko'rib chiqaylik. Bu borada Sharq mamlakatlari tajribasi - bu asrlar davomida shakllangan an'analar, milliy qadriyatlar va ma'naviy ta'limotlarga asoslangan tarbiya usullarini o'rganishni nazarda tutadi. Sharq mamlakatlarida (masalan, Yaponiya, Xitoy, Hindiston, Janubiy Koreya, Malayziya, Indoneziya, O'zbekiston, Eron va boshqalar) yoshlar tarbiyasi oila, jamiyat va diniy-ma'rifiy qadriyatlar asosida olib boriladi. Bular quyidagi yo'nalishlarda izohlanadi:

1. An'anaviy qadriyatlarga asoslangan tarbiya. Bunda kattalarga hurmat, ota-onaga itoat, ustozga sadoqat, kichiklarga mehr tarbiyaning asosiy tamoyillari hisoblanadi. Oila - birinchi va asosiy tarbiya instituti sifatida tan olinadi.

2. Jamoatchilik ruhi. Sharqda shaxsiy manfaat emas, balki jamoaviy manfaat birinchi o'ringa qo'yiladi. Sababi, sharq xalqlari jamoa bo'lib yashashdan shakllangandan keyin shu urf-odat, an'analarini hozirgacha saqlab qolgan. Ushbu tarbiyaga tayanib, bolalar jamiyatda o'z o'rnini bilishga, jamoada harakat qilishga o'rgatiladi. Xalqimiz mentalitetiga mos bo'lgan ushbu fazilatni O'zbekistonning birinchi Prezidenti I.A.Karimov alohida ta'kidlab o'tgan edi: "Markaziy Osiyoda biz butun tarix davomida jamoa bo'lib yashab kelganmiz. Ayrim G'arb mamlakatlarida esa yakka yashashga intilish kuchli. Bu bizning respublikamiz uchun to'g'ri kelmaydi. Aytaylik, bizda mahallachilik an'anasi juda kuchli... Men farqlar haqida gapirganda, Amerikada shaxs demokratiyasi ustuvor bo'lsa, bizda boshqacha me'yorlar asosida, ya'ni jamiyat manfaatlariga mos yashash ustuvorligini aytmoqchiman" .

3. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ustuvorligi. Bunda yoshlar nafaqat bilim, balki axloq-odob, vatanparvarlik, insonparvarlik ruhida tarbiyalanadi. Diniy-ma'rifiy qadriyatlar (islom, buddaviylik, konfutsiylik) tarbiyaning manbai sifatida foydalaniladi.

4. Intizom va mehnatsevarlikka o'rgatish. Sharq mamlakatlarida intizom, qattiqqo'llik, mehnatga muhabbat yuksak qadrlanadi. Bunda bolalarga yoshligidan boshlab o'z burchini sidqidildan bajarishga o'rgatiladi. Masalan, Yaponiyada oila va maktab tarbiyasining uyg'unligi, maktablarda axloq-odob darslari mavjud, bolalarda jamoaviy mas'uliyat hissi kuchli tarbiyalanadi, maktabni tozalashni o'quvchilar o'zlari amalga oshiradi (ya'ni mehnatga o'rgatish orqali tarbiya beriladi). Xitoyda Konfutsiy ta'limoti asosida kattalarga hurmat, jamoa manfaati, ta'lim va tartibga e'tibor kuchli. Bolalar va yoshlar turli davlat dasturlari orqali Vatanga sadoqat va mehnatsevarlik

ruhida tarbiyalanadi. Hindistonda esa ma'naviy-ma'rifiy ta'limga katta e'tibor qaratiladi. O'zbekistonda milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, axloq-odob, ota-onaga hurmat ruhida tarbiyalash birinchi o'ringa qo'yilgan. Bizda shuningdek, diniy-ma'rifiy meros asosida ma'naviy tarbiya berish kuchli seziladi. Oilalar va ta'lim muassasalari hamkorligi yaxshi yo'lga qo'yilmoqda.

Yoshlar tarbiyasida Sharqning metod va usullarining ijobiy jihatlari quyidagicha:

- Axloqiy tarbiyaning ustuvorligi;
- Intizom va odobga katta e'tibor qaratilganligi;
- Oila va jamiyatning kuchli ta'siri;
- Kattalarga hurmat, vatanparvarlik, o'zlikni anglash tuyg'ularining singdirilishi.

Salbiy tomonlarini esa (ayrim hollarda) quyidagicha belgilash mumkin:

- Yoshlarning kattalarga ortiqcha tobeligi ularning mustaqil fikrlashini cheklashi mumkin;
- Jamoat manfaati ruhida berilgan tarbiya individual (o'ziga bo'lgan ishonch) va shaxsiy rivojlanishni kamaytirishi mumkin va h.k.

Demak, Sharq mamlakatlarida yoshlarning milliy mentalitetini tarbiyalash tarixiy-madaniy qadriyatlarga, ma'naviyat va axloqqa asoslangan bo'lib, jamiyatda mas'uliyatli, odobli, mehnatsevar va jamoa uchun foydali shaxsni tarbiyalashga qaratilgan. Bugungi kunda ushbu tajribani zamonaviy talablar bilan uyg'unlashtirish juda muhim. Bu orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarni birlashtirgan barkamol avlodni tarbiyalash mumkin.

Hozirgi vaqtda dunyo davlatlari o'rtasida avvalgidek devorlar yo'q. Chunki, globallashtirish jarayoni, internet va axborot rivojlangan hozirgi davr barcha davlatlarning chegaralarini "yuvib" yubordi. Shu bois, barcha masalalarda, jumladan, yoshlar mentalitetini shakllantirish jarayonida ham boshqa davlatlarning ta'siri kuchli seziladi. Shu sababli, bizdan G'arb mamlakatlarining yoshlarni tarbiyalashdagi ijobiy jihatlari olishni, ammo, bizning mentalitetimizga mos kelmaydigan jihatlardan yoshlarimizni asrashni talab qiladi.

Chunki "bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasini G'arb va Sharq, texnogen sivilizatsiya va madaniyatsizlik, diniy bag'rikenglik va diniy fanatizm, patriarxal madaniyat va feminizm, absolyutizm va ratsionalizm tashkil etmoqda. Shuningdek, bir tomondan Internet tarmog'i bilan birga millatlararo nizolarning keskin avj olayotgani, ikkinchi tomondan esa G'arbnig AQSH orqali Sharqqa "tantanavor yurishi" hamda butun dunyoda o'sib borayotgan musulmon madaniyati va Xitoy ekspansiyasi bilan izohlanadi .

G'arb davlatlarining yoshlar tarbiyasidagi ilg'or tajribalarini o'rganish, ulardan kerakli va mos keladigan jihatlari o'zimizning milliy tarbiya tizimiga moslashtirish orqali jamiyatimizda barkamol, mustaqil fikrlaydigan va mas'uliyatli yoshlarni tarbiyalash mumkin. Lekin bu jarayonda milliy mentalitet, urf-odat va qadriyatlarimiz ustuvor bo'lib qolishi kerak.

Mentalitet - har bir xalqning aql-idroki, dunyoga, jamiyatga, atrof-muhitga bo'lgan munosabati, tafakkur darajasi. Bir so'z bilan aytganda, insonning qoni bilan suyagiga singib ketgan xususiyatlari, odatlari. Xalqimizda "Kasallik qolsa ham, odat qolmaydi," degan naql bor. Bu yomon odatga bog'liq aytilgan. Lekin buni yaxshi odatlar, go'zal urf-odatlar, an'analar, pokiza tarbiya, insondagi ijobiy fazilatlar ma'nosiga ham qo'llash mumkin. Ya'ni, agar, yaxshi odatlar va urf-odatlar, an'analar xalq orasida shakllangan, insonning vujudiga singdirilgan bo'lsa, uni hech qanday kuch yo'q qila olmaydi. Shuning uchun, "bolani yoshdan" deganlaridek, yoshlarga yaxshi fazilatlarini yoshligidan singdirib borish kerak. Agar insonda yaxshi odatlar mentalitetga aylansagina o'sha jamiyatda ijobiy o'zgarishlar rivojlanadi. Vaholanki, insonning, xalqning ongi va psixologiyasida ezgu fazilatlar mentalitetga aylanmasa, bunday jamiyatda hech qachon yaxshi tarbiya va yuksak madaniyat shakllanmaydi. Buni biz yuqorida G'arb va Sharqning yoshlar tarbiyasidagi o'ziga xosliklarini tahlil qilish orqali ko'rib o'tdik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Леонтьева Е.И. Взаимопроникновение культур Запада и Востока в контексте формирования универсальной культуры // Серия "Symposium", Конференция «Путь Востока», Межкультурная коммуникация., Выпуск 30 / Материалы VI Молодежной научной конференции по проблемам философии, религии, культуры Востока. СанктПетербург: Санкт-Петербургское философское общество, 2003. С.182–183.
2. Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан.-Т.: Ўзбекистон, 1996.- Т. 4.- 239-240 б
3. Шелковая Н.В. Культуры Запада и Востока// http://shelkovaya.ucoz.ru/publ/obshij_spisok_publicacij/soderzhanie_statej/kultury_zapada_i_vostoka/3-1-0-39